

**“MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA  
MEHNAT TARBIYASINING MAZMUNI”**

*Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani  
25 sonli Davlat maktabgacha talim  
tashkiloti direktor o'rinbosari  
**Abdullayeva Nigora Azamat qizi**  
E-pochta: [m.abdullayeva@gmail.com](mailto:m.abdullayeva@gmail.com)  
<https://t.me/abdullayeva0100>*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim va tarbiya yoshidagi bolalarning mehnatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** mehnat, intizom, o'z-o'ziga xizmat, kattalar mehnati, kasb, tarbiya, qiziquvchanlik, salohiyat, tarbiyachi, metod, pedagogika, psixolog, ko'nikma, rivojlanish, yaxlitlik.

**Аннотация:** В статье рассматриваются особенности организации труда детей дошкольного образовательно-воспитательного возраста, а также цели и задачи трудового воспитания.

**Ключевые слова:** труд, дисциплина, самообслуживание, труд взрослых, профессия, воспитание, любознательность, потенциал, воспитатель, метод, педагогика, психолог, умения, развитие, целостность.

**Abstract:** This article discusses the specific features of organizing the work of children of preschool educational and upbringing age, the goals and objectives of labor education.

**Keywords:** labor, discipline, self-service, adult labor, profession, upbringing, curiosity, potential, educator, method, pedagogy, psychologist, skills, development, integrity.

**Kirish.** Rivojlangan davlatni bunyodga keltirish uchun har qanday davlatning fuqarosi dastlab oilada va so'ngra maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mukammal tarbiyalanishi, shaxs sifatida to'laqonli shakllanish imkoniyatlariga ega bo'lishi lozim bo'ladi. Xususan, qadimgi Gretsiya va Rim tarixidan yaxshi bilamizki, miloddan avvalgi davrlarda ham yosh avlod tarbiyasi o'zining ma'naviy qiyofasi va aqliy qobiliyati bilan jamiyat a'zolari o'rtasida yuksak hurmat ehtiromga sazovor bo'lgan kishilar, ya'ni donishmandlar zimmasiga ishonib topshirilgandir. Ushbu hola yosh avlod tarbiyasi uning tashkil etilishi mazmunini faqat shaxs kamolotini emas, balki jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

**Asosiy qism.** Yosh avlodga mehnat tarbiyasi berish masalasi hozirgi

davrdan eng dolzarb mavzu hisoblanadi. Mehnat bolalardan diqqat, o'tkir zehnlilik, topqirlik, bilib olgan malaka va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay bilish, ijodkorlik qobiliyatlarini egallashni talab etadi. Mehnat jarayonida bolalar ayrim ish turlarini (bir varaq qog'ozni buklash, kerakli uzunlikni o'lchash, andozaga qarab shaklni qirqib olish kabi harakatlarni) anglatuvchi bir qancha tushuncha va atamalardan foydalanishga, bajarilgan ishdagi izchillikni so'zlab berishga to'g'ri keladi. Bular bola nutqini yangi so'zlar bilan boyitadi, uning mantiqiy bog'liq ravishda grammatik jihatdan to'g'ri shakllanishiga imkon beradi. Bolalarni eng oddiy mehnat qurollari, materiallarga ishlov berish usullari bilan tanishtirish kerak. MTMdagi mehnat ularni maktabdagi politexnik ta'limga tayyorlaydi. Mehnatning axloqiy qimmati uning jamiyat uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi. Mehnat har bir bolani o'z mehnatining ijtimoiy ahamiyatini tushunib yetishga, uning jamiyat hayotiga kirib borishiga, o'zini shu jamiyatning a'zosi deb his etishiga imkon yaratadi. Har bir bola oilada, bolalar mehnatida o'z ulushi borligini his eta bilishi lozim. Ishning shu tarzda tashkil etilishi bolalarda jamoachilik va intizomlilikni, burch hissini tarbiyalaydi. Shuning uchun bolalarni jamoa mehnatida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mehnatining o'ziga xos tomonlari ko'pgina olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda keng o'rganib chiqilgan. Bolalar mehnatining muhim belgisi uning ma'lum maqsadga qaratilganligidir. Kichik bog'cha yoshidagi bolalarning mehnati biror jarayonga oid harakat bo'lib, u faqat kattalarning rahbarligi natijasidagina amalga oshirilishi mumkin. Bola kubiklarni bir joydan ikkinchi joyga, mashinadan - stolga, stoldan - mashinaga ko'chiradi va hokazo. Tarbiyachi boshqa stol ustidagi kubiklarni ko'rsatib, uni mashinada ortib olib borish kerakligini aytadi.<sup>1</sup> Bola kubiklarni mashinasida shkafga tashiy boshlaydi va joyiga tartibli qilib joylab qo'ya boshlaydi. «Qatnov» bir necha marta takrorlanib, barcha kubiklar joyiga yig'ishtirib qo'yiladi. Bolalar faoliyatida maqsad paydo bo'ladi. Keyingi galda bolaning o'zi o'ynayotgan o'rtoqlariga o'ynab bo'lgandan keyin o'yinchoqlarni mashinada joyiga olib borib qo'yishni aytadi. Katta guruh bolalarida mustaqil maqsad qo'yish qobiliyati moddiy samara beradigan mehnat turlarida muvaffaqiyatli rivojlanadi: gulzorda, ekinzorda ishlash, o'yinchoqlar yasash va boshqalar. Faoliyatni rejalashtirish mehnat tarbiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bolalarni kuzatish ular faoliyatining tartibsiz, rejasiz ekanligini ko'rsatadi. Bolalar bunday harakatlar orqali biror natijaga erishish uchun juda ko'p vaqt va kuch sarflaydilar, shu bilan bir vaqtda o'z ishlaridan o'zlari qoniqmaydilar. erishish yo'lidagi mehnat harakatlari, o'yin o'zining rivojlanishidagi har qanday bosqichda to'xtatilishi mumkin, mehnatda esa, albatta, ko'zlangan natijaga erishiladi. Bolalarning mehnat faoliyati qachon va qanday qilib

<sup>1</sup> Achilov O. M., Kochkinova M. N., Kamolova O. M. Q. THE IMPORTANCE OF ECONOMIC EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 06. – C. 137-140

o'yindan ajratiladi? Kichik bog'cha yoshidagi bolalar mehnatining asosiy turi o'z-o'ziga xizmatdir. Bu kichik bolalar uchun ancha mashaqqatli ish. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarni mehnatning bu turiga o'rgatishda ko'pincha o'yin vaziyatlaridan foydalaniladi («Qo'g'irchoqni sayrga otlantiramiz», «Qo'g'irchoqni uxlatamiz» va shularga o'xshashlar). Avvaliga bolalar o'yin obrazi orqali mehnatga o'rgatiladi. Shu orqali bolalar ishonch bilan harakat qilishni o'rganadilar. Sekin-asta o'zo'ziga xizmat qilish malaka va ko'nikmalari shakllana boradi Har bir bola oilada, bolalar mehnatida o'z ulushi borligini his eta bilishi lozim. Ishning shu tarzda tashkil etilishi bolalarda jamoachilik va intizomlilikni, burch hissini tarbiyalaydi. Shuning uchun bolalarni jamoa mehnatida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnatning bolalarni aqliy tomondan rivojlantirishdagi ahamiyati shundaki, mehnat jarayonida ular borliqni faol anglay boshlaydilar, dunyoni materialistik idrok etish imkoniyati yaratiladi. Maktabgacha yoshdan boshlab bolalarga mehnat tarbiyasi berish ularni estetik va jismoniy jihatdan ham rivojlantiradi.

**Xulosa.** Mehnat tarbiyasining asosiy maqsadi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, axloqli qilib tarbiyalash, kelajakdagi mehnat faoliyatiga ruhiy jihatdan tayyorlash, mehnat qilish xohishini singdirib borishdir. Tarbiyachi bolalarni o'z faoliyatlarini taxminiy rejalashtirib olishlariga o'rgatish va ular faoliyatiga rahbarlik qilishi muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T. “O'zbekiston”, 2017 y. – 47-b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 y. 7 dekabr. –T.: “O'zbekiston”, 2017. – 48b.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi 29.12.2020-yil
5. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi.-T.: TDPU, 2000.52 b
6. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, M.A'zamova “Maktabgacha pedagogika - T.: Ma'naviyat 2019 y.
7. Kayumova N. “Maktabgacha pedagogika”. TDPU nashriyoti T.: 2013 y. 14b
8. Qayumova N.M. “Maktabgacha pedagogika” TDPU nashriyoti -T.: 2017 y.
9. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. To'ldirilgan qayta nashr. –T.: TDPU, 2017 y.
10. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.2018. 12-14-b

11. Sodiqova SH.A. “Maktabgacha pedagogika”, “Tafakkur sarchashmalari” -T.: 2013 y.
12. To’raxonova Z, Sayriddinov D. “Tarbiyachining ma’naviy qiyofasi” O’quv qo’llanma T- “Sharq nashriyoti” 2016-y 46-47-b
13. Ko‘chkinova M. N., qizi Rahmonova D. I., qizi Rahmonova M. S. BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHI KASBIY TAYYORGARLIGIGA DOIR ETIKET QOIDALARINI TARKIB TOPTIRISHDA MULOQOTNING O‘RNI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 778-783.
14. Achilov O. M., Kochkinova M. N., Kamolova O. M. Q. THE IMPORTANCE OF ECONOMIC EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 06. – C. 137-140.
15. Ko‘chkinova M. KASBIY ETIKET QOIDALARINING TAKOMILLASHUVIDA PEDAGOGIK MAHORAT VA O ‘QITUVCHI KOMPETENSIYALARINING AHAMIYATI //" Science Shine" International scientific journal. – 2024. – T. 16. – №. 1.
16. Atamurodova Q. G. Factors and means of individual spiritual development //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 771-774.
17. Achilov O. M., Kochkinova M. N., Kamolova O. M. Q. THE IMPORTANCE OF ECONOMIC EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 06. – C. 137-140
18. Ismatov S. et al. O‘QUVCHI YOSHLAR TARBIYASIDA DINIY EKSTRIMIZM VA TERRORIZM TAHDIDI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING MAVJUD SHAROITLARI //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – C. 443-447
19. Ismatov S. et al. O‘QUVCHI YOSHLAR TARBIYASIDA DINIY EKSTRIMIZM VA TERRORIZM TAHDIDI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING MAVJUD SHAROITLARI //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – C. 443-447
20. Ko‘chkinova M. KASBIY ETIKET QOIDALARINING TAKOMILLASHUVIDA PEDAGOGIK MAHORAT VA O ‘QITUVCHI KOMPETENSIYALARINING AHAMIYATI //" Science Shine" International scientific journal. – 2024. – T. 16. – №. 1
21. Ko‘charova D., Ko‘chkinova M. XURSHID DO ‘STMUHAMMAD NASRIDA DIDAKTIK TAMOYILLAR //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 703-707
22. Ko‘charova D., Ko‘chkinova M. ABDULLA QODIRIYNING OBRAZ YARATISH MAHORATI //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 714-716
23. Ko‘chkinova Makhliyo Norbutayevna, & Ravshanov Muhammad G‘afur o‘g‘li. (2021). THE ROLE OF INCLUSIVE EDUCATION IN THE LIVES OF CHILDREN WITH DISABILITIES. European Scholar Journal, 2(6), 193-194. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/articl>.